



## KOGON TUMAN QISHLOQ XO'JALIGINING GEOGRAFIK JIHLARI

**Ergashev Anvar Karimovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8093024>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kogon tumanidagi qishloq xo'jaligi jihatlari, shu jumladan tumandagi fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligiga doir boshqa xo'jalik sohalarining ulushi berilgan. Undan tashqari maqolada tumandagi dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yillar kesimdagi ulushi o'rganilgan va geografik tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Dehqonchilik, chorvachilik, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, donli ekinlar, texnik ekinlar, qishloq xo'jalik yerlari

**Аннотация:** В данной статье представлены аспекты сельского хозяйства Когонского района, в том числе удельный вес фермерских, крестьянских хозяйств и других отраслей экономики, связанных с сельским хозяйством в районе. Кроме того, в статье изучена и географически проанализирована доля продукции, производимой в сельскохозяйственной и животноводческой отраслях района.

**Ключевые слова:** Сельское хозяйство, животноводство, ферма, земледелие, зерновые, технические культуры, сельскохозяйственные угодья.

**Abstract:** This article presents aspects of agriculture in Kogon District, including the share of farms, peasant farms, and other economic sectors related to agriculture in the district. In addition, in the article, the share of products produced in the agricultural and livestock sectors of the district was studied and geographically analyzed.

**Key words:** Agriculture, animal husbandry, farm, farming, grain crops, technical crops, agricultural land

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 16-17-fevral kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida hududning zamonaviy qiyofasini yaratish, sanoatning ishlab chiqarish va qayta ishlash, transport-logistika, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sayyohlik salohiyatini yanada oshirish bo'yicha soha mutasaddilariga topshiriqlar bergandi. Mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida viloyatda ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan Kogon tumanida ham yangi sanoat korxonalarini, tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi hamda qishloq





xo'jaligida mahalliy lashtirish darajasi va eksport hajmi oshdi. Transport va servis infratuzilmasi rivojlanib, sayyohlar oqimi ko'paydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev viloyatimizga tashriflari chog'ida mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, irrigatsiya-melioratsiya tizimini yaxshilash, tumanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, meva-sabzavot, uzum hamda poliz mahsulotlarini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida issiqxonalar tashkil etish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilanishini aytib o'tgan edilar.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U hozirgi kunda jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Odatda, qishloq xo'jaligi deganda, asosan, uning ikki tarkibi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik tushuniladi. Bu iqtisodiyot fani nuqtai nazaridan to'g'ri, ammo iqtisodiy geografik jihatdan esa, uni qishloq aholisining mashg'uloti, xo'jaligi ma'nosida ham e'tirof etish mumkin. Tabiiyki, qishloq joylarda ham bu tarmoq turlanib, diversifikatsiyalanib, shu bilan bir qatorda, sanoat, transport, rekratsiya, turizm, ijtimoiy sohalar ham keng tarqalmoqda.<sup>1</sup>

Kogon tumani iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va bog'dorchilik yetakchilik qiladi. Kogon tumanining umumiy yer maydoni 50 000 ga bo'lib, shundan 26 492 ga ri (55 %) qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlardir. Miqdor jihatdan keying o'rinlarda fuqarolar foydalanadigan yerlar va zahira yerlari tashkil etadi.

2020-yil 1-yanvar ma'lumoti bo'yicha tumanda 424 ta fermer xo'jaligi bo'lib, 311 tasi paxta-g'allachilik fermer xo'jaligi, 70 tasi chorvachilik fermer xo'jaligi, 41 tasi bog'dorchilik fermer xo'jaligi va 2 tasi boshqa turdagi fermer xo'jaliklaridan iborat. 2018-yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarining amaldagi narxlari deyarli 270 mlrd so'm ni tashkil etgan, bu sanoat mahsulotlari hajmiga nisbatan ancha kam bo'lib, 74 mlrd so'm kam demakdir.

Xo'jalik toifalari bo'yicha barcha qishloq xo'jalik ekinlari ekin maydonining taqsimlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, fermer xo'jaliklari 14,4 ming ga, dehqon xo'jaliklariga 1,4 ming ga, qishloq xo'jalik korxonalariga 0.7 ming ga ekin ekiladigan yer to'g'ri keladi.

Tumanda paxta-g'allachilik fermer xo'jaligining ko'pligidan bilish mumkinki, qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotida dehqonchilik yo'nalishi ustun turadi. Tumanda asosan sug'orma dehqonchilik qilish keng tarqalgan.

<sup>1</sup> A. Soliyev. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: "Universitet" 2014





Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 17 983 gektar bo'lib, qishloq xo'jalik yerlarining 70 % ga yaqin qismini egallaydi.

Dehqonchilikda donli ekinlar yetishtirish katta o'rin egallaydi. Donli ekinlardan asosan bug'doy, makkajo'xori, arpa va suv yaxshi bo'lgan hududlarda sholi yetishtiriladi. 2020- yilda tumanning 6 418 gektar yer maydoniga galla ekilib (viloyat galla ekin maydonining 7 %), 34 318 tonna hosil olingan (viloyat g'alla yalpi hosilining 5 %) va hosildorligi esa 60 sentner bo'lgan. Agar ushbu hosil besh yil odingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak kamayishning guvohi bo'lamiz (2015-yilda 36 000 tonna). Donli ekinlar ekiladigan yerlar maydoni esa nisbatan o'sgan (2015-yilda taxminan 6000 ga yerga donli ekinlar ekilgan). Don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 58,6-60,6 s/ga tashkil etadi. Viloyat bo'yicha don ekinlarining yalpi hosilida tumanning ulushi bor-yo'g'i 6 % ni tashkil etadi. Bu borada Qorovulbozor tumani bilan birgalikda oxirgi o'rinda turadi. Hududda yetishtirilgan don mahsulotlarini Kogon sharidagi "Kogondonmahsulotlari" aksionerlik jamiyati korxonasi tegirmonida bug'doy, un va non mahsulotlari tayyorlanadi.<sup>2</sup>

Tumanda donli ekinlar yetishtirishdan keyin paxtachilik turadi. 2020-yilda tumanning 7 032 gektar yer maydoniga paxta ekilib (viloyat paxta ekiladigan maydonlarining 6,5 %), 22 280 tonna yalpi hosil olingan (viloyat paxta yalpi hosilining ham 6,7 % i) va hosildorligi esa 30.9 sentner bo'lgan. 2012-yil ko'rsatkichlari bilan solishtirsak 2015-yilda paxta hosili 23 ming tonnani, ekin maydoni 6 ming ga ni, o'rtacha hosildorlik 30-33 s/ga ni tashkil etgan. Viloyat bo'yicha paxta yalpi hosilida tumanning ulushi 7 % ni tashkil etadi. Bu borada Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi. Tumanda yetishtirilayotgan paxta Kogon shahridagi "Kogon paxta tozalash" zavodida qayta ishlanadi va paxtadan ajratilgan chigitni esa shahar yaqinidagi "Kogon yog" zavodiga jo'natilib, yog' va sovun mahsulotlari, chorva mollari uchun yem tayyorlanadi.

Sabzavotchilik va polizchilik tumanning deyarli barcha hududlarida yetishtiriladi. Asosan tuman hududining garbiy va shimoliy tomonlarida hosildorligi yaxshi. Shunday bo'lishiga qaramasdan sabzavot ekinlarining hosildorligi Buxoro viloyatining boshqa tumanlariga nisbatan past ko'rsatkichga ega. Jumladan har gektariga o'rtacha 240-255 sentner to'g'ri keladi. Tumanda 2020-yilda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlarining yalpi hosili 24 843 tonna

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2020-2022-yy





tashkil etdi. Bu viloyatda yetishtirilgan hosilning 4 % demakdir. Bu borda ham faqat Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi.

Poliz ekinlariga keladigan bo'lsak, tuman poliz ekinlarining hosildorlik darajasi har gektarida 230 sentnerdan kam. Bu jihatidan viloyatning boshqa tumanlari orasida eng past ko'rsatkichga egadir. Poliz ekinlarining yalpi hosili esa 1000 tonnadan ortiqroq. Bu viloyatda yetishtirilgan poliz ekinlarining 3 % demakdir. Poliz ekinlarining yalpi hosilida viloyatda oxirgi o'rinda turadi.

Kartoshka yetishtirish bu jihatidan tuman viloyatning boshqa tumanlari orasida eng yuqori o'rinda turadi, ya'ni kartoshkaning hosildorligi har gektarida 295 sentnerdan ortiq. Kartoshkaning yalpi hosili 16 810 tonna bo'lib, viloyat yalpi hosilining 8,5 % demakdir.

Uzumchilik tumanda hosildorligi har gektarida 130 sentnerdan kam bo'lishiga qaramasdan (viloyatdagi eng past ko'rsatkich) nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tumanda 300 gektar uzumzorlar mavjud bo'lib, uzumning yalpi hosili esa 3 700 tonnani tashkil etadi. Bu viloyatda yetishtirilgan uzum yalpi hosilining 3% demakdir.

Meva-rezavor ekinlarning maydoni tumanda 700 ga ni tashkil etadi. Hosildorlik 220 s/ga dan kam emas. Viloyat bo'yicha meva -rezavor ekinlarining yalpi hosilida Kogon tumanining ulushi atigi 2 %. Bu borada faqatgina Qorovulbozor tumanidan oldinda turadi.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining ikkinchi asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotining turli yillarda 40-45 % to'g'ri keladi. Chorvachilik dehqonchilik bilan uzviy bog'liq, ular qadimdan o'zaro aloqador holda rivojlanib kelgan. Dehqonchilik, jumladan, ozuqa ekinlarini yetishtirish, yem-xashak bazasini yaratish chorvachilik uchun xizmat qiladi. Shuningdek, sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan hududlarda ham ma'lum darajada chorvachilikning sut-go'sht yo'nalishi yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

Qoramolchilik chorvachilikning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. U aholini eng muhim oziq-ovqat turi, ya'ni sut va go'sht bilan ta'minlaydi. 2020-yil 1-yanvar ma'lumoti bo'yicha, Kogon tumanining barcha toifadagi xo'jaliklarida 83 893 bosh qoramollar bo'lib, shundan 29 198 boshini sigirlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni Buxoro viloyati misolida solishtiradigan bo'lsak, viloyat qoramollarining 2,5 % demakdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan tuman hududida 70 ta chorvachilik fermer xo'jaliklari mavjud.

Tumanda qo'y va echkilarni boqish ham rivojlangan. Qo'y va echkilar asosan hududning janubiy, sharqiy va shimoliy tomonlarida ko'plab boqiladi.





Tumanda ularning umumiy soni 133 963 boshni tashkil etadi. Bu viloyat qo'y va echkilarining 6,5 % i demakdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bahor va yoz fasllarida tuman ichki bozorini ta'minlash uchun Qashqadaryo viloyatining cho'lli, dashtli hududlaridan ham qo'y va echkilar ko'plab keltiriladi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 1000 ga yaqin cho'chqalar boqiladi. Bunda asosiy hissa dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan) ga to'g'ri keladi. Tuyachilik rivojlanmagan.

Tuman hududida otlarning umumiy soni 155 boshni tashkil etadi va viloyat otlari sonining 3,5 % ini egallaydi. Buning asosiy ko'rsatkichi aholi xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Otlar asosan tumanning chekka qishloqlarida nisbatan ko'p boqiladi. Bunga asosiy sabab, u yerlarda antropogen ta'sir kam ekanligi.

Kogon tumanida parrandachilik, xususan, tovuq boqishga ham katta e'tibor berilmoqda. Tabiiy holda parrandachilik g'alla ekiladigan dalalarda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladi. Biroq so'nggi yillarda bu soha sanoat asosida, ya'ni parrandachilik firmalarini tashkil etish negizida rivojlanib bormoqda. Tumanda 2017-yil yanvar ma'lumoti bo'yicha, jami 1 216 919 bosh parranda bo'lgan. Shuning 966 514 boshi qishloq xo'jaligi korxonalarida, 14 039 boshi fermerlarda va 236 366 boshi esa aholi xo'jaliklarida boqiladi. Bu ko'rsatkichlar viloyat parrandalari sonining 32 % i demakdir. Bunga asosiy sabab tuman hududida 7 ta yirik parrandachilik fabrikasining mavjudligidir.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodiga qarashli bo'lgan parrandachilik fermasi, Kogon tumanining Beklar MFYda 2014 - yilda Ukraina texnologiyalari asosida ish boshladi. Korxonada hududi 5 gektar joyda joylashgan bo'lib, 35 kishi ish bilan band. Korxonada xo'jaligi tuxum tug'adigan tovuqlar yetishtirishga ixtisoslashgan. Bugungi kunda bu yerda 30 000 tuxum tug'adigan tovuqlar parvarish qilinib, 90-95 % tuxum olinadi.

Bundan tashqari ushbu fabrika atrofida 3 ta parrandachilik korxonasi joylashgan bo'lib, ular asosan xususiy korxonalaridir.

"Ko'hna Buxoro Qurilish" MCHJga qarashli "Buxoro Sof Parranda" parrandachilik fabrikasi 2020- yilda o'z faoliyatini boshladi. Bu korxonada 4 gektar hududda joylashib, hozirgi kunda 16 kishi ish bilan band. Korxonaning ixtisosligi go'sht beradigan tovuqlar boqishdir. Bu yerda bir yilda 360 000 dona jo'ja, 280 tonna tovuq go'shti olinadi.

Tumandagi tovuq fabrikalarining eng yirigi Sarayon MFY da joylashgan "Buxoroparranda" AJ korxonasi hisoblanib, XX asrning 60-yillarida ishga



tushgan. Hozirgi kunda bu yerda 300 000dan ziyod tuxum tug'adigan tovuqlar boqiladi (1-ilova).

Tumanda pillachilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, yetishtirilgan pilla xomashyosi 2020- yilda 136 tonnani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich viloyatda yetishtirilgan pillaning 2,5 % i demakdir. Keying yillarda pillachilik unumdorligini oshirish maqsadida dalalar atrofida tut ko'chatlari ekilmoqda.

Baliqchilikning turli xo'jaliklarida 217 tonna baliq yetishtiriladi. Shundan 34,5 tonnasi baliqchilik xo'jaliklari, 166,7 tonnasi qishloq xo'jaligi korxonalarini, 18,3 tonnasi fermer xo'jaliklari va 86 tonnasi aholi xo'jaliklariga to'g'ri keladi (8-jadval).

1-jadval

**Tumanda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rtaskichlari**

Chorvachilik mahsulotlari	O'lchov birligi	Barcha toifadagi xo'jaliklarda	shu jumladan:		
			Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari)	Qishloq xo'jalik korxonalarini
go'sht	tirik vaznda, tonna	16535	92	15662	781
Tuxum	ming dona	76997	202	3780	73015
Jun	tonna	93	1	82	10
Qorako'l teri	dona	22602	566	9341	12695
Asal	tonna	17	6	10	1

Jadval Buxoro viloyat statistika bo'limining to'plami asosida tuzildi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. Абирқулов Қ. Иқтисодий география. Т.:Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. – 320 б.
3. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: “Университет”, 2014. –404 б.





4. O'zbekiston geografik atlası. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı davlat qo'mitasi. Toshkent.: 2016. – 192b.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi Buxoro viloyat statistika boshqarmasi axborotnomasi, 2023-yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2020-2022-yy
7. Muhamadovich, M. A. (2021). DEVELOPMENT OF MIDDLE CITIES IN ZARAFSHAN REGION. EPRA International Journal of Research & Development (IJRD), 6(12), 1-1.
8. Mavlonov, A., & Jalilova, C. (2020). Geographical aspects of use of recreation resources for tourism (on the example of Bukhara region). InterConf.
9. Muhammadovich, M. A., & Zarifovna, J. C. (2020). GEOGRAPHICAL ASPECTS OF USE OF RECREATION RESOURCES FOR TOURISM (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). EDITOR COORDINATOR, 1081.
10. Muhamadovich, M. A., Elmurodovna, M. I., & Davronovna, K. D. (2020). The Desert Tourism And Opportunities For Its Development (On The Example Of Bukhara Region). The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(12), 68-73.
11. Салиев, А., Курбанов, П., & Мавлонов, А. (2008). Городское расселение в пустынях Узбекистана. ÇÖLLERİ ÖZLEŞDIRMEĞİŇ PROBLEMALARY ПРОБЛЕМЫ ОСВОЕНИЯ ПУСТЫНЬ PROBLEMS OF DESERT DEVELOPMENT, 21.
12. Мавлонов, А. М. Бухоро агломерациясининг шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 23(23), 174.
13. Мухамадович, М. А. (2019). Развитие средних городов в Республике Узбекистан. Материалы Географического общества Узбекистана, 79-83.
14. Мухамадович, М. А. Бухоро вилояти шаҳарларининг классификацияси. Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 26(26), 2005-70.
15. Салиев, А. С., Мухамедов, А., & Мавлонов, А. М. (2004). Проблемы совершенствования регионального расселения в Узбекистане. In Материалы региональной научно-практической конференции «Туризм и наука.
16. Мавлонов, А. М., & Жалилова, Ч. З. (2019). Опустынивание и развитие городов.". Проблемы опустынивания: динамика, оценка, решение" материалы международной.





17. Мухамадович, М. А. (2019). Македониялик Александр бунёд этган шаҳарлар географияси. Известия географического общества Узбекистана, 55(1).
18. Мавлонов, А. М. (2007). Бухоро вилояти шаҳарларида аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлашнинг баъзи бир муаммолари. Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 28, 28.
19. Мавлонов, А. М., & Жалилова, Ч. З. (2022). Чўл ҳудудларининг рекреацион-туристик салоҳияти ва уни ривожлантириш имкониятлари (Бухоро вилояти мисолида). Science and Education, 3(6), 107-113.
20. Мавлонов, А. М., & Жалилова, Ч. З. (2022). Чегарадош ҳудудларда зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболлари (Ўзбекистон ва Туркменистон чегарадош ҳудудлари мисолида). Science and Education, 3(6), 101-106.
21. Mavlonov, A. M., Jalilova, C. Z., & Fazliddinova, K. M. (2023). FEATURES OF THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF CITIES IN DESERT CONDITIONS. Journal of Geography and Natural Resources, 3(01), 16-21.
22. Мавлонов, А. М. (2022). АМУ-БУХОРО МАШИНА КАНАЛИНИНГ ТУРИСТИК-РЕКРЕАЦИОН ИМКОНИАТЛАРИ. Экономика и социум, (12-1 (103)), 702-706.
23. Мавлонов, А. М., Жалилова, Ч. З., & Усмонов, А. У. (2022). ЧЎЛ ТУРИЗМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ (ГАЗЛИ-ЦВЕТУШИЙ-ЖОНГЕЛДИ-ЧУРУҚ-ГАЗЛИ ҲАЛҚАСИ МИСОЛИДА). Экономика и социум, (12-1 (103)), 707-712.
24. Mavlonov, A., & Jalilova, C. (2020). Geographical aspects of use of recreation resources for tourism (on the example of Bukhara region). InterConf.

